

## **O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA LISONIY BIRLIKLARNING NUTQIY VOQELANISHI**

*To‘xtayeva Elnora,*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada lisoniy birliklar va ularning turlari, shuningdek, nutqda voqelanishi haqida ma’lumot berilgan. Mavzu yuzasidan O‘tkir Hoshimovning asarlari tahlilga tortilgan. Yozuvchining tilshunoslik bilan bog‘liq mahorati nutq jarayonida yuzaga chiqqan.

**Kalit so‘zlar:** *lison, nutq, lisoniy birliklar, fonema, morfema, so‘z, so‘z birik,asi, gap, matn, fonetik, morfemik, sintaktik.*

Tilshunoslikda til va nutq dixtonimiyasi uzoq davrlardan beri olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Har ikki hodisani bir-biridan farqlash muhim masalalaridan biridir. Shved olimi Ferdinand de Sossyur tilni shaxmat o‘yiniga, nutqni esa o‘yin jarayoniga o‘xshatgan. Til – umumiy, mohiyat, imkoniyat va sababdir. Tilni xalq yaratadi va uning umri xalq umridek uzoq. Nutq – xususiy, hodisa, voqelik va oqibat. Nutq til birliklarining og‘zaki va yozma shaklda namoyon bo‘lishidir.

Bizga ma’lumki, til so‘zi “lison” atamasi bilan ham ataladi. (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari ham “Qush tili” degan ma’noni anglatadi). Shunga ko‘ra, tilga oid birliklarni lisoniy birliklar deb o‘rganiladi. Ular og‘zaki va yozma nutq jarayonida yuzaga chiqadi va voqelanadi. Lisoniy birliklarning voqelanishi – bu til tizimidagi birliklarning nutqda real shaklda namoyon bo‘lish jarayonidir. Til – bu imkoniyatlar tizimi (lison), nutq esa — shu imkoniyatlarning voqelangan, ya’ni amalda ishlatilgan shaklidir. Til va nutq birliklarini aniqroq ifodalash uchun jadval ko‘rinishida tahlil qilamiz:

Til (Lison) va lisoniy birliklar	Nutq va nutqiy birliklar
Umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, abstrakt,	Xususiylik, hodisa, voqelik, oqibat, amaliy ko‘rinish, konkret, individual
Uzoq yashovchi barqaror hodisa	Tez unutiladigan o‘zgaruvchan hodisa
Fonema	Tovush
Morfema	Qo‘shimcha
Leksema	So‘z
Qolip	So‘z birikmasi, gap va matn

Misol tariqasida, til tizimida “kitob” degan so‘z mavjud (bu — lisoniy birlik), ammo kimdir “*Men kitob o‘qiyapman*” desa, bu so‘z voqelandi, ya’ni nutqda qo‘llanildi.

Lisoniy birliklarning voqelanishi – bu til birliklarining nutqda hayotga tatbiq etilishi, ularning real ishlatilish holatidir. Ushbu mavzu yuzasidan taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning asarlaridagi lisoniy birliklarning voqelanishiga e’tibor qaratamiz O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, nasriy asarlari orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy hayot, axloq va vijdon masalalarini chuqur yoritgan yozuvchidir. Uning nasriy merosi roman, qissa, hikoya va esselarni o‘z ichiga oladi.

Yozuvchining “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, “Tushda kechgan umrlar” singari romanlari o‘zbek xalqining hayotini, inson ruhiyati va taqdirini teran ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu asarlarda real hayot manzaralari, xalqona tilda yozilgan samimiy dialoglar va chuqur falsafiy mushohadalar uyg‘unlashgan. O‘tkir Hoshimovning hikoya va esselari — “Bahor qaytmaydi”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, “Nur borki, soya bor” kabi asarlari — o‘zbek xalqining milliy ruhini, mehr-oqibat, sadoqat va halollik kabi qadriyatlarni targ‘ib etadi.

Yozuvchining nasriy uslubi soddaligi, xalqona iboralar bilan boyligi va hayotiy haqiqatlarni samimiy aks ettirishi bilan o‘ziga xosdir. O‘tkir Hoshimov nasri o‘zbek tili va milliy tafakkur boyligini ifodalovchi eng yuksak namunalar qatoriga kiradi.

Lisoniy birliklarning nutqda voqelanishida tahlil uchun adibning “Dunyoning ishlari” asarini oldik. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari tili lisoniy birliklarning voqelanishini boy va tabiiy tarzda ko‘rsatadi. Bu asarda til (lison)dagi birliklar nutqda (voqelanishda) jonlanadi — yozuvchi ularni real, hissiy, obrazli ifoda vositasiga aylantiradi. “Dunyoning ishlari” asarida lisoniy birliklar fonemadan tortib matngacha to‘liq voqelanadi. O‘tkir Hoshimov ularni xalq tili, og‘zaki nutq va badiiy ifoda orqali jonli hayotga tatbiq etgan.

Lisoniy birliklarning voqelanishini dastlab darajalarga bo‘lib olamiz:

1. Fonetik darajadagi voqelanish;
2. Leksik darajadagi voqelanish;
3. Morfemik darajadagi voqelanish;
4. Sintaktik darajadagi voqelanish;

**1. Fonetik darajadagi voqelanish**da fonemalar real nutqdagi shaklda voqelanadi. Yozuvchi xalq tilidagi tovushlarni, sheva ohanglarini aynan saqlab yozadi. Bunda fonemalar emotsional, og‘zaki ohangda voqelangani. Asardab ba’zi misollarni ko‘rib chiqamiz:

- *Oyi, cho'pchak aytib bering,*
- *Uxla bolam, charchaganman.*
- *Ayta qoli-i-ing"*

Bu o'rinda i fonemasining takror yozilishi, bola nutqiga cho'ziqlik berishi biulan birga, yalinish, iltimos ohanglarini ham qo'shgan. "Ha-a-a. Bundoq demaysizmi?" a fonemasining bu o'rinda takrorlanishi yodga tushirish, eslash ma'nolarini ifodalaydi. *Bunday* ko'rsatish olmoshining *bundoq* degan xalq nutqidagi shakli ishlatilgan.

"*Siz yaxshisiz-a?*", "*Akam yomon-a?*", "*Adham jinni-a?*" kabi nutqiy jumalarda a fonemasi nafaqat tovush, balki so'roq-taajjub yuklamasi hamdir. Bola nutqiga so'rash va erkalanish ohangini ham yuklagan. Yoki : "*Mahmud bukning uylari qaysi, o'rgilay?*" gapida bukri so'zi bukur ko'rinishida qo'llangan. Tovush jihatidan farqlangan. So'zning xalq tilidagi variantini qo'llash, so'zlovchining sodda va samimiyligini ham ko'rsatadi. "*Oyi obkashniyam ayting*" jumlasida ham yuklamasi so'zga tovush almashishi bilan qo'shib yozilgan. Bunda h fonemasi y toshuvi shaklida qo'llangan.

Fonemani ortiqcha qo'llanishiga Shayx degan obraz nutqidagi so'zlar misol bo'ladi: "*Hodzir*", "*qidz*", "*nodzik*", "*o'dziga*", "*tsekin*". Bunday ortish hodisasi qahramon nutqidagi nuqsonni ham ko'rsatib beradi.

2. **Morfemik darajadagi voqelanish**da qo'shimchalar so'z yasash va ma'no o'zgartirish vositasi sifatida ishlatiladi. Adib morfemalarni qo'llash jarayonida shaxsiy va hissiy ma'nolarni ham voqelantirgan.

"*Poshsha oyimlarni ko'rgani keldim*" – bu yerda –lar ko'plik shakli hurmat ma'nosida; "*Chillak o'yinining shafqatsizroq bir qoidasi bor...*" – bu o'rinda –roq qo'shimchasi sifatning qiyosiy daraja ma'nosidan tashqari "kuchsizlanish", "zaiflashtirish" ma'nolarini ham yuzaga chiqargan,

"- *Nima bo'ldi o'zi, ovsinjon?*" – gapdagi –jon morfemasi erkalash va hurmat ma'nosida voqelanganiga guvoh bo'amiz.

3. **Leksik darajadagi voqelanish**da so'zlar oddiy lug'aviy ma'noda emas, badiiy kontekstda jonlanadi. Qissada qo'llangan leksik birliklardan ayrimlarini misol keltiramiz:

"*Dunyoning ishlari shu ekan iloj qancha?*" → "ishlar" — hayot, sinovlar ma'nosida voqelangan.

"*Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak*" – jumlasida Bahodir va Baxtiyor ismlari qisqartirilgan ko'rinishda qo'llangan. "*Mavlu hech qo'ymadi-da bolam...*" gapida ham Mavluda leksemasi Mavlu ko'rinishida kelgan.

“*Poshsha, dardini bergan ...davosiniyam beradi*” Yoshi katta ayolga hurmatni ifodalash uchun ham *poshsha* so‘zi tanlangan.

“*Issiq manoj, issiq manoj obering*” Ushbu jumla yosh bola nutqidagi “monoj” ruscha morojniy so‘zining bola tilidagi ko‘rinishidir.

“*Odamlar yaxshi bo‘lishga harakat qiladi, lekin dunyo o‘zgaradi.*” → “yaxshi” — ijobiy fazilat ma’nosida qo‘llangan.

Bu holatda so‘zlar yangi, konnotativ ma’noda voqelangan.

4. **Sintaktik darajadagi voqelanish**da so‘z birikmalari va gaplar nutqda tabiiy, xalqona ohang bilan ishlatilgan.

Misollar:

“*Butun sinfga, butun maktabga eshittirib hayqirgim kelardi*” Butun so‘zi ikki so‘z birikmaning tobe qismi sifatida qo‘llangan va ta’kidlash ma’nosini kuchaytirgan.

“*Hayot — daryo, inson esa qayiq.*” → metaforik ifoda orqali obrazli nutq.

“*Men onamni sog‘indim, juda sog‘indim.*” → takror hissiy ta’sirni kuchaytirgan.

Bu sintaktik birliklarning badiiy va emotsional voqelanishidir.

Xullas, O‘tkir Hoshimovning so‘z qo‘llash mahorati va lisoniy birliklarni tanlab ishlata olishi yozgan asarlariga tabiiylik, qahramonlariga samimiylik bahsh eta olgan. Shuning uchun ham barcha asarlari kitobxonlar qalbidan joy olib ulgurgan. Birgina maqola bilan adibning lisoniy birliklarni qo‘llash borasidagi mahoratini ochib berib bo‘lmaydi. Ushbu mavzuni kelgusi tadqiqotlarimizda batafsilroq yoritishga harakat qilamiz.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2018. – 320 b.
2. Karimov N. O‘tkir Hoshimov ijodining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – 140 b.
3. Qo‘chqorov A. Til va uslub masalalari. – Toshkent: “Fan”, 2003. – 180 b.
4. Jo‘raeva M. Badiiy matnda til va nutq munosabati. – Toshkent: “Universitet”, 2011. – 160 b.
5. G‘ulomov A. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005. – 220 b.
6. Mahmudov N. Til va nutq nazariyasi. – Toshkent: “Fan”, 2012. – 210 b.
7. Tursunov U., Shirinov K., Yo‘ldoshev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2009. – 300 b.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 480 b.

9. G‘afurova D. O‘tkir Hoshimov asarlarida xalq tili unsurlarining qo‘llanishi. // Filologiya masalalari jurnali, 2020, №3. – B. 45–52.
10. Raximova N. “Dunyoning ishlari” romanida nutq madaniyati va xalqona iboralar. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, №5. – B. 60–67.
11. Abdullayeva S. O‘tkir Hoshimov asarlarida lisoniy birliklarning badiiy vazifasi. // Tilshunoslik tadqiqotlari, 2022, №2. – B. 72–80.